

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11176574>

OMONAT SAQLASH SHARTNOMASI

Yo‘ldoshev Samariddin Rahmatulla o‘g‘li

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti

2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola doirasida ijtimoiy munosabatlar sirasiga kiruvchi omonat saqlash shartnomasiga keyingi o‘rinlarda bat afsil to‘xtalib o‘tamiz. Omonat saqlashning asosiy tushunchasiga, taraflarning huquq va majburiyatlariga alohida to‘xtalib o‘tamiz.

Kalit so‘zlar: omonat saqlash shartnomasi, omonat saqlovchi, yuk topshiruvchi.

Omonat saqlash shartnomasi haqida so‘z borar ekan bunda unga oid asosiy tushunchlarni bilib olishimiz kerak bo‘ladi. Bunda Omonat saqlash ashyoning buzilishi yoki o‘g‘irlanishining oldini olish kabi maishiy ehtiyojlarni ta’minlash maqsadida amalga oshiriladigan keng tarqalgan xizmat ko‘rsatish turlaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Omonat saqlash bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar ilgaridan huquqiy tartibga solingan. Masalan, qadimgi rim huquqida mulkni vaqtincha saqlashga berish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi normalardan iborat bo‘lgan “depositum” instituti mavjud bo‘lgan. Omonat saqlash shartnomasi bo‘yicha omonat saqlovchi saqlashga berilgan ashyoga nisbatan egalik qilish huquqigagina ega bo‘lgan, omonat narsasidan foydalanishga faqatgina shartnomada to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilgan hollardagina yo‘l qo‘yilgan. Har qanday holda ham mulkning egasi saqlashga topshiruvchi bo‘lib qolavergan.

Avvaladan xalqimizda “omnatga qilma xiyonat”-tarzidagi naql mavjudligini bilamiz. Bugungi kunga kelib bu munosabat normativ-hquqiy hujjatlarda tartibga solingan. Omonat saqlash bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 51-bobi normalari asosida shartnoma bilan tartibga solinadi. Fuqarolik kodeksining 875-moddasida Omonat saqlash shartnomasi bo‘yicha bir taraf -omonat saqlovchi unga ikkinchi taraf -yuk topshiruvchi bergen ashyoni saqlash va bu ashyoni to‘la holida qaytarish majburiyatini oladi.

Omonat saqlashni o‘z kasb faoliyatining maqsadlaridan biri sifatida amalga oshiradigan tashkilot (professional omonat saqlovchi) omonat saqlash shartnomasida saqlovchining yuk topshiruvchidan ashyoni shartnomada nazarda tutilgan muddatda saqlashga qabul qilish majburiyati ko‘zda tutilishi mumkin. Omonat saqlash shartnomasini boshqa shartnomalardan ajratib turuvchi huquqiy belgilari mavjud bo‘lib, unga quyidagilar kiradi:

- birinchidan, umumiy qoidaga binoan omonat saqlash real shartnoma bo‘lib hisoblanadi, ya’ni, ashyoni omonat saqlash yuzasidan taraflar o‘rtasidagi huquq va majburiyatlar yuk topshiruvchi tomonidan ashyoning omonat saqlovchiga topshirilishi paytidan e’tiboran vujudga keladi. Shuningdek, omonat saqlashni o‘z kasb faoliyatining maqsadlaridan biri sifatida amalga oshiradigan tashkilot (professional omonat saqlovchi) yoki yuridik shaxslar o‘rtasida omonat saqlash shartnomasi tuzilganda mazkur shartnoma konsensual shartnomalar guruhiga taalluqli bo‘ladi, chunki bunday shartnoma bo‘yicha omonat saqlashga topshiruvchining ashyoni omonat saqlashga qo‘yish.

- ikkinchidan, omonat saqlash shartnomasi haq evaziga yoki tekinga tuzilishi mumkin, bu shartnoma bo‘yicha omonat saqlovchi sifatida kim (professional omonat saqlovchi) ishtirok etayotgani bilan bog‘liqdir.

Omonat saqlash shartnomasi predmati, tuzilish shakli va muddati.

Omonat saqlash shartnomasining predmeti omonat saqlovchi tomonidan yuk topshiruvchiga ko‘rsatiladigan xizmatlar majmui hisoblanadi. Mazkur xizmatlarning ob’ekti bo‘lib fuqarolik muomalasidan chiqarilmagan, fuqarolar va yuridik

shaxslarning iste'mol maqsadlariga mo'ljallangan ko'char mol-mulklar bo'lishi mumkin. Jismoniy xususiyatlari jihatidan omonat saqlovchining ixtiyoridagi binoga yoki hududga joylashtirilishi mumkin bo'lgan buyumlargina omonat saqlash shartnomasining ob'ekti bo'la oladi.

Ko'chmas mulklarni saqlash uchun qo'riqchi tayinlanishi mumkin. Masalan, Fuqarolik kodeksining 900- moddasiga ko'ra ko'chmas mulklar sekvestr tartibida - nizoli ashylarni saqlash hisoblanib saqlashga topshirilishi mumkin. Fuqarolik qonunchiligiga ko'ra omonat saqlash shartnomasining shakli uni tuzish holatlari va turidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Agar omonat saqlash shartnomasi tomonlaridan biri yuridik shaxs bo'lsa yoki shartnoma ob'ektining qiymati eng kam oylik ish haqining o'n baravaridan ortiq bo'lsa yozma ravishda tuzilishi kerak. Quyidagi hollarda omonat saqlash shartnomasining yozma shakliga rioya qilingan hisoblanadi:

1) agar ashyoning saqlashga qabul qilinganligi fakti omonat saqlovchi tomonidan yuk topshiruvchiga saqlash tilxati, pattasi, guvohnomasini, omonat saqlovchi imzolagan boshqa hujjatni berish yo'li bilan tasdiqlangan bo'lsa;

2) agar bunga qonun hujjatlarida yo'l qo'yilsa yoki u saqlashning ushbu turi uchun odatdagi hol bo'lsa, ashylar saqlash uchun qabul qilinganligini tasdiqlaydigan nomerli jeton (nomer) yoki boshqa belgi berilgan bo'lsa.

Omonat saqlash shartnomasining oddiy yozma shakliga rioya qilmaslik saqlashga qabul qilingan ashyo bilan omonat saqlovchi qaytargan ashyoning aynan o'ziliги xususida nizo chiqqan taqdirda, taraflarni guvohlarning ko'rsatmalarini vaj qilib keltirish huquqidан mahrum etmaydi. Shuni ta'kidlash joizki, ashyo saqlash uchun favqulorra holatlarda (yong'in, tabiiy ofat, to'satdan kasal bo'lish, hujum xavfi va boshqalar) topshirilgan bo'lsa, shartnomaning yozma shakliga rioya qilish talab etilmaydi.

Omonat saqlash shartnomasida taraflarning huquq va majburiyatları.

Har qanday shartnomaning mazmuni taraflarning huquq va majburiyatlaridan iborat bo'ladi. Omonat saqlash shartnomasida taraflarning huquq va majburiyatlarini

tavsiflashdan oldin shuni ta'kidlash joizki, qonunga ko'ra yuk topshiruvchi va omonat saqlovchining huquq va majburiyatlarini belgilashda shartnomaning real yoki konsensual, muddatli yoki muddatsiz ekanligi, tekinga yoki haq evaziga tuzilganligi, shuningdek, mazkur munosabatlarda professional omonat saqlovchi ishtirok etayotganligi muhim ahamiyatga ega.

Umumiy qoida bo'yicha, shartnomada bo'yicha taraflarning huquq va majburiyatlarini faqatgina ashyo omonat saqlovchiga taqdim etilgan vaqtidan vujudga keladi. Biroq, ba'zi bir hollarda taraflarning huquq va majburiyatlar ular o'rtasida tuzilgan shartnomada bilan aniqlanadi, ular shartnomada huquq va majburiyatlar ashyo saqlashga topshirilgandan keyin vujudga kelishi to'g'risida hamda huquq va majburiyatlar vujudga kelishi uchun ashyni saqlashga topshirish lozimligi to'g'risida aniq belgilab olishlari mumkin. Saqlangan ashyo, balki, saqlash vaqtidan olingan uning xosili va daromadi ham qaytarib beriladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, omonat saqlovchi tomonidan omonat saqlash tekinga amalga oshirilayotganda, yuk topshiruvchi ubdan saqlashni muxim shartlariga rioya qilishni talab qila olmaydi, ushbu holatda omonat saqlovchi ashyni o'z mulkni qanday tartibda saqlasa uni ham shunday saqlashi lozim bo'ladi. Bu holda saqlovchi ashynoning buzilishi uchun, agar u uchun binoda aniq bir haroratni ushlab turish, shamollatish, maxsus qayta ishlov berish va boshqalar kabi maxsus saglash shartlari talab gilingan bo'lib, omonat saqlash shartnomasida ushbu shartlar nazarda tutilmagan yoki omonat saqlovchi o'zining mulki uchun ushbu harakatlarni amalga oshirmaganda javob bermaydi.

Ammo bugungi kunda ushbu shartnomada taraflar bo'yicha nizolar va kelishmovchiliklar ham mavjuddir. Masalan omonat ishinib topshirilgan shaxs tomonidan topshirilgan tovarlarning yetarli darajada saqlanmaganligi, yoki iste'mol qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlarining yetarli darajada saqlanmaganligi oqibatida iste'molga yaroqsiz holga kelib qolganligi, shartnomada shartlariga muvofiq kelmaydigan sharoirda saqlanishi, taravlar bo'yicha kelishilgan bitimga rioya qilmaslik,

vaqtida tovarni olib kelmaslik va o‘z vaqtida saqlanilgan ashyo, tovarlarni olib ketmaslik kabi bir qancha muammolarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Ushbu yuqorida keltirib o‘tilgan masalalarga oid muammolarni hal qilishda mening taklifim shundan iboratki saqlanayotgan ashylar, tovarlar, ayniqsa oziqovqat mahsulotlarining saqlanish darajasi bo‘yicha sanitar gigeyenalik tekshuruv ishlarini amalga oshirish. Sharnoma shartlari buzulgan holatlarda darhol berilgan arizani olib, nizosini hal qilish lozim. Bundan tashqari sohta tadbirkorlik bilan shug‘ullanayotgan tadbirkorlarning faoliyatiga chek qo‘yish ham muhum ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqasi barcha shu soha tarbirkorlari haqidagi ma’ lumotlarni o‘zida jamlagan platforma yaratish lozim. Taraflar o‘rtasida tuzilayotgan sharnoma bandlarida ham ushbu platformani keltirib o‘tish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksiga Sharx.
4. Fuqarolik Huquqi Darslik 2-Qism.
5. <https://lex.uz>